INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI QO'SHMA SO'ZLARDA KO'P MA'NOLILIK VA OMONIMLAR NAZARIYASI

Maxmudova Dildora Baxtiyor qizi
"University of Business and Science" oliygohi ingliz tili o'qituvchisi (99 933 01 82)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarda ko'p ma'nolilik va omonimiya nazariyasi muhokama qilindi va misollar bilan ochib berildi. Bundan tashqari omonimlar ham shakliy, ham ma'no xususiyatlariga ko'ra polisemantik so'zlarga o'xshab ketadi, lekin ular farqli bo'lib, bu farq va o'xshashliklar haqida ma'lumotlar berildi.*

Kalit so'zlar: *qo'shma so'z, shakldoshlik, stilistika, tajnis, polisemiya, evfemizm, disfemizm.*

THEORY OF POLYSEMY AND HOMONYMS IN ENGLISH AND UZBEK COMPOUND WORDS

Abstract: *In this article, the theory of polysemy and homonymy in English and Uzbek compound words was discussed and explained with examples. In addition, homonyms are similar to polysemantic words in terms of both form and meaning, but they are different, and information about these differences and similarities has been given.*

Key words: *compound word, formativeness, stylistics, tajnis, polysemy, euphemism, dysphemism.*

ТЕОРИЯ ПОЛИСЕМИИ И ОМОНИМОВ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ СЛОЖНЫХ СЛОВАХ

Аннотация: *В данной статье рассмотрена и объяснена на примерах теория полисемии и омонимии в английских и узбекских сложных словах. Кроме того, омонимы схожи с многозначными словами как по форме, так и по значению, но различны, и приведены сведения об этих различиях и сходствах.*

Ключевые слова: *сложное слово, образность, стилистика, тайнис, полисемия, эвфемизм, дисфемизм.*

KIRISH

Zamonaviy ingliz tilida omonimiya hodisasi keng rivojlangan. Ushbu hodisa ko'plab tilshunoslarni uning muammolarini o'rganishga va ingliz tilidagi omonimlarni tasniflashga harakat qilishga jalb qiladi. Ammo omonimiyani o'rganish uzoq vaqtdan beri olib borilganiga qaramay hali ham omonimlarning umumiy qabul qilingan ta'rifi va bu sohada o'rnatilgan terminologiya mavjud emas.

Omonimiyani o'rganish chet tilini tushunish uchun ayniqsa muhimdir, chunki unda turli xil grammatik shakllar bir xil tovush yoki imloga ega bo'lishi mumkin. Rus tilida odatda bunga e'tibor berilmaydi. Bundan tashqari, omonimlarni bilish

ingliz tili amaliyotida juda zarur, bunda ularning soni o'zbek tiliga qaraganda ancha yuqori. So'zning ma'nosi nutq kontekstiga aynan nima mos kelishini aniqlash zarur bo'lganda, omonimiya muloqot jarayonida o'ziga ma'lum bir to'siq bo'ladi. Shuningdek, so'z-omonimlar so'zlovchi uchun muammo bo'lib, u o'z bayonotlarini bir ma'noda tushunish uchun so'zlarni tanlashga majbur bo'ladi.

Muxokama va natijalar

Omonimlar ham shakliy, ham ma'no xususiyatlariga ko'ra polisemantik so'zlarga o'xshab ketadi, lekin ular farqli bo'lib, bu farq va o'xshashliklar quyidagicha:

1. Ko'p ma'noli so'z birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan ayni bir so'zning o'zidir. Omonimlar esa fonetik tarkibi bir xil, birdan ortiq so'zlardir. Masalan, paxta bir so'z sifatida o'simlik, uning hosili, tola, chigit (paxta ekmoq) ma'nolarini anglatgani uchun polisemantik so'z; tuz so'zi tuz-mineral, osh tuzi, tuz-tuzmoq, tuztekis (dala) sifatida uch so'z va uch ma'no bo'lgani uchun omonimdir.

2. Ko'p ma'noli so'z ma'nolari bir-birini taqozo etadi. Ularning ma'nosi birbiri bilan mushtarak, mazmunan bir-biri bilan aloqador: ko'z so'zi uzukning ko'zi, yog'ochning ko'zi, buloqning ko'zi iboralarida ko'zga o'xshashliligi ma'nosi bilan

bir-biri bilan aloqador. Omonimlar tarkibidagi so'z ma'nolari bunday bog'lanish - aloqadorlikka ega emas. Masalan, ko'kat ma'nosidagi o't so'zi olov ma'nosidagi o't

so'zi omonim, lekin ko'kat va olov ma'nolari o'rtasida aloqadorlik yo'q.

3. Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zning ma'no taraqqiyoti natijasida yuzaga keladi, omonimlarning юzaga kelishi esa, asosan, tasodifiydir.

4. Ko'p ma'noli so'zlar asosan bir til doirasidagi taraqqiyot natijasi, omonimlar esa turli tildagi ayrim so'zlarning bir tilda fonetik bir xillikka duch kelishidir.

Omonimlar manbalariga ko'ra ham turli xususiyatlarga ega:

1. Har bir tilning o'z ichki imkoniyatlari asosida:

a) tub so'zlar: o't (o'simlik, olov, buyruq fe'li), ot (ism, uy hayvoni, buyruq fe'li), tosh (jism, buyruq feli) kabi;

b) so'zning fonetik o'zgarishi: un (ovoz)

v) so'z yasalishi: oylik - maosh, reja;

g) konversiya: oltin - metall, material (oltin soat);

d) polisemantiklik: kun - quyosh, sutkaning yarmi;

e) adabiy til va dialekt: shoti - arava asosi va narvon.

2. Chet tillardan so'z olish: tur (xil) - tur (sport), tom (uy) - tom (jild) kabi.

Omonimlar o'zbek sheriyati tarixida muhim rol o'ynagan. Shoirlar omonimlarning xilma-xil ma'nolaridan foydalanib, tuyuqlar, tajnislar yaratganlar. Xalq og'zaki ijodining turli janrlarida omonimlardan keng foydalanilgan:

Olmani so'ndi nigorim-ol!-dedi,

Olma birla bu ko'ngilni-ol!-dedi.

So'rdim ersa olmasining rangini,

Ne so'rarsan?-olma rangi-ol!-dedi (Navoiy).

Dilrabo, o'ltir boshingdan aylanay,

Tandim ol, o'lsam so'ngagim ayla nay (Uvaysiy) va boshqalar.

Ikki yoki undan ortiq ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladigan so'zlarga esa ko'p ma'noli yoki polisemantik so'zlar deyiladi. Ko'p ma'noli so'zlarning qanday ma'noda qo'llanganligi faqat matn ichida - kontekstda bilinadi.

Masalan, bosh so'zining asl ma'nosi kalla (gavdaning bosh qismidir). Ammo bu so'z turli birikmalarda turli ma'nolarni ifodalaydi: ishning boshi birikmasida - ishning boshlanishi; bosh vazifa birimasida - muhim, asosiy vazifa, bosh ko'tarmoq birikmasida - qo'zqalmoq, harakatga kelmoq; bosh bo'lmoq iborasida – rahbarlik qilmoq, idora etmoq, ishni boshqarmoq; bosh egmoq iborasida - bo'ysunmoq, taslim

bo'lmoq, o'zini aybdor his qilmoq; bosh biriktirmoq (qo'shmoq) iborasida - ahillik, ittifoqlik, birdamlik; boshboshdoqlik yasalmasida - o'zboshimchalik, tartibsizlik kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Ko'p ma'noli so'zlar faqat otlargagina xos bo'lmay balki fe'l, sifat va boshqa turkumlarda ham uchraydi. Masalan, o'chirmoq so'zining: 1) olovni o'chirmoq (o'z ma'nosi), 2) to'xtatmoq - ovozni o'chirmoq, 3) tozalamoq -doskani o'chirmoq, chiziqni o'chirmoq, 4) chizmoq - xatni siyoh bilan chizib o'chirmoq, 5) tuzatmoq - xatoni o'chirib tuzatmoq; ko'k so'zining: 1) rang, tus. 2) osmon, 3) rezavor o'simlik; besh so'zining: 1) raqam, 2) miqdor, 3) baho (a'lo), 4) yutuq, muvaffaqiyat, kayfiyat (uning ishi besh); oq so'zining 30 dan ortiq ma'nosi va boshqalar.

Ba'zida bog'langan va bog'lanmagan ma'nolar o'rtasidagi tafovut ikki omonim so'zning ma'nolari orasida mavjud bo'lmagan bog'liklik ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosida mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, foot of the man — foot of the mountain, loud voice — loud colours va boshqalar.

Stilistik jihatdan neytral bo'lgan so'zlar odatda kundalik hayotda tez-tez uchraydi. Ko'p ma'noli bo'lgan so'zlar worker va hand ba'zan bir xil ma'noni ya'ni "qora ishchi" degan ma'noni anglatib keladi, bu holat faqatgina hand so'zining ishlatilishida 2.8 % tashkil qiladi. Masalan, to hire factory hands

So'zlarning ko'p ma'noliligi aslda so'z ma'nolarining turli usullar bilan ko'chishi, davrlar o'tishi bilan ayrim so'zlarning ma'nosida kengayish yo torayish

hodisasi yuz berishi natijasida hosil bo'ladi. Kishilarning tabiat, jamiyat va ishlab chiqarish sohasidagi tasavvurlari, shu tasavvur va tushunchalarni ifodalovchi so'zlar, ularning ma'nolari o'zgarib, kengayib, boyib boradi. Lekin bu metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi hodisalar polisemiyaning ko'rinishlari degan gap emas. Ma'no ko'chishdagi so'z ma'nolarining o'zgarishi bilan ko'p ma'nolilikdagi so'z ma'nolarining o'zgarishi boshqa-boshqa hodisalardir. Qiyoslang:

oltin soat va oltin ko'z birikmalaridagi "oltin" so'zida ma'no ko'chishi yuz bergan, lekin har ikkala birikmadagi oltin so'zi bir leksik ma'noda qo'llangan. Nok ko'chatlari payvand qilindi va gaz quvurlari payvand qilindi gaplarida esa "payvand" so'zi har ikkalasida ham ulamoq tushunchasini anglatsa ham, birida kurtak o'rnatish, ikkinchisida eritib yopishtirish ma'nolarini anglatganligi uchun ikki leksik ma'no hosil bo'lgan va ko'p ma'nolilik yuz bergan. Shunga ko'ra polisemiya hodisasining yuz berishining uch sababini ko'rsatish mumkin:

a) so'zlarda hosila ma'noning yuz berishi;

b) so'z yasalishi;

v) evfemizm va disfemizmlar.

Xulosa

Omonimlar bilan bir qatorda tilda ularning alohida turlari sifatida omograflar (bir xil yoziladigan, lekin urg'u va talaffuz bilan farqlanadigan so'zlar: olma—olma, tom (uy tomi) — tom (kitob tomi) va boshqa hamda omofonlar (bir xil talaffuz qilinadigan, lekin yozilishida farq qiladigan so'zlar: yetti (son) — yetdi (fe'l); yot (begona) — yod (xotira) va boshqa Omonimiyaning mazkur barcha ko'rinishlariga mansub so'zlar ma'nosi asosan matn orqali bilinadi.

Omonimlikning ikkita asosiy manbasi: 1) ko'p ma'noli so'zlarning ma'no taraqqiyoti tarqoqligi va 2) ikki yoki undan ortiq turli so'zlardan iborat konvergent tovush rivojlanishi. Ikkinchisi, omonimlarning hosil qilinishida eng kuchli omil bo'ladi.

Omonimlikdagi eng munozarali muammo bu "omonimlik va ko'p ma'nolilik o'rtasida, ya'ni bir so'zning turli ma'nolari va ikki yoki undan ortiq fonemik jihatdan farqli so'zlarning ma'nolari o'rtasida kuzatiladi.

Omonimiyaning sinxron tahlilida qo'llaniladigan mezonlar quyidagilar:

1) o'zaro bog'langan yoki bog'lanmagan ma'nolarning semantik mezoni;

2) imlo qoidalari;

3) taqsimlash mezoni.

Ko'p ma'nolilik va omonimlikni farqlash muammosi nazariy tilshunoslikda semantik darajadagi birlik tahlilining asosiy muammosi bilan chambarchas bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. . Baxtiyor Mengliyev, O'ral Xoliyorov, Nilufar Abdurahmonova, "O'zbektilidan universal qo'llanma", Nazariy ma'lumot asosiy tushuncha lug'at, 5-nashr, Toshkent: "Akademnashr"-2016

2. Мешков О.Д. Композитном значении (На материале английских сложных слов N+N) // Слово в грамматике и словаре. – М.: Наука, 1984

3. . N. Erkaboyeva, "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami", Toshkent: "Akademnashr"- 2015

4. Тухтаева К. Структура и семантико-номинативные характеристики сложных слов, входящий в состав фразеологизмов. Дисс…кан.фил.наук. – Навои., 2002

5. http://google.uz/Useful English Stress in Compound Words.html

6. www.longman.com